



**“Qishloq xo‘jaligi” ta‘lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash  
va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda  
kompetentligiga qo‘yiladigan**

**MALAKA TALABLARI**

**I. Umumiy qoidalar**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish sifati tinglovchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasi, ularning bilimlari va amaliy mahoratlarini pedagog kadrlarga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

“Qishloq xo‘jaligi” ta‘lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablari tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv rejalari va dasturlarini, shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayonini, ta‘lim sifatini nazorat qilish va baholash tartibi va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

**II. Oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining tayyorgarligi va  
kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy talablar**

**Pedagog kadrlar quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:**

- oliy ta‘lim davlat ta‘lim talabi, Kadrlar tayyorlash tegishli ta‘lim sohasi bo‘yicha davlat ta‘lim talabi, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, shuningdek, o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv dasturi mohiyatini bilish va tushuna olish;
- oliy ta‘lim to‘g‘risidagi normativ-huquqiy va direktiv hujjatlarni bilish;
- bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta‘minlashning zamonaviy metodlarini bilish va amalda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- o‘quv rejalari va o‘quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari haqida ma‘lumotga ega bo‘lish;
- o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlarini o‘zlashtirish;
- o‘quv fanlari mazmuni va ularni o‘qitishdagi izchillik asoslarini bilish;
- o‘quv mashg‘ulotlarining har xil turlarini (ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya mashg‘ulotlari, kurs ishlari loyihalari, malaka bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar) o‘tkazish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;



- talabalar o'rtasida milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish malakalariga ega bo'lish;
- ta'lim jarayoni qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyatiga ega bo'lish;
- chet tillardan bittasida so'zlashuv nutqi asoslarini o'zlashtirish;
- mustaqil ta'lim olish yo'li bilan o'z bilimlarini takomillashtirish metodlarini bilish va amalda qo'llash malakasiga ega bo'lish;
- talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantira olish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- bakalavriat va magistratura ta'lim dasturlarida izchillik va moslashuvchanlikni tashkiliy va metodik ta'minlash ko'nikmasiga ega bo'lish;
- kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv rejalari va fanlar dasturlarini shakllantirish malakasiga ega bo'lish;
- talabalarining o'z bilimini mustaqil oshirishini tashkiliy va metodik jihatdan ta'minlash ko'nikmasiga ega bo'lish;
- talabalarining bilim va ko'nikmalarini reyting bo'yicha nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta'minlash malakasiga ega bo'lish;
- kadrlar tayyorlash sifatiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni bilish;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashni tashkil etish;
- iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan ishlash metodlarini bilish va amalda qo'llash;
- oliy ta'limda menejment va marketing asoslarini bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

**Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari quyidagi yo'nalishlarda kompetentlikka ega bo'lishi lozim:**

**Huquqiy kompetentlik** - ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini, qonunchilik normalarini bilish hamda kasbiy faoliyatda samarali foydalana olish, lokal normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qonunchilik normalari doirasida qarorlar qabul qilish.

**Kasbiy kompetentlik** - pedagogik faoliyatdagi real vaziyatlarda uchraydigan kasbiy pedagogik muammo va vazifalarning samarali yechimini ta'minlaydigan metodik usullar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, pedagogik diagnostika (so'rov, individual va guruhviy intervyu) texnologiyalari, psixologik va pedagogik korreksiya, didaktik vositalarni qo'llay olish va doimiy takomillashtirib borish; ta'lim oluvchilar bilan o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalarga doir kreativ g'oyalar, ilg'or xorijiy tajribalar, yangi adabiyot, shuningdek, boshqa ma'lumotlarni o'zlashtirish hamda qo'llash.

**Informatsion kompetentlik** - pedagogning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumot, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va zarur axborotlarni uzatish hamda sohaga moslashtirish, mustaqil bilish faoliyatini doimiy rivojlantirish, masofaviy ta'lim va multimedia texnologiyalari, Internet global tarmog'idan, elektron ta'lim resurslaridan o'quv maqsadlarini amalga oshirishda samarali foydalanish.



**Kommunikativ kompetentlik** - ta'lim jarayonida samarali muloqotni ta'minlaydigan, turli yoshdagi ta'lim oluvchilar, ota-onalar, hamkasblar, xodimlar bilan muloqot o'rnatish, insonlar bilan o'zaro hamkorlikda strategiya, taktika va texnikani shakllantirishni bilish, ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarni amalga oshirishda ularning hamkorlik harakatlarini tashkil etish, o'z qarashlarini himoya qila olish, notiqlik san'ati, og'zaki va yozma nutq savodxonligi, taqdimotlarning samarali shakl va metodlarini tanlay olish.

### **III. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o'quv rejasining tasdiqlangan Namunali tarkibidan kelib chiqib oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlariga qo'yiladigan malaka talablari**

#### **III. 1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari.**

##### **Pedagog kadrlar:**

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi oid normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy usul va vositalarini;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklarni, bu to'g'risidagi muhim ma'lumotlarni;
- 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyatini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini *bilishi* kerak.
- 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib berish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishni hisobga olinganligiga e'tibor qaratish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish sohasidagi muammo va masalalarni tahlil etish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga taalluqli bo'lgan tadqiqotlarni aniqlash va tahlil qilish;



- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq tegishli amaliyot materiallarini o'rganish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari mazmunini sharhlash va amaliyotda qo'llash;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini tahlil etish;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini sharhlash *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini mazmun va mohiyatini to'g'ri idrok etish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, shuningdek ta'limning boshqa ustuvor sohalari bo'yicha talabalarni fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish, fanni samarali o'qitishga qaratilgan turli metod va usullarini qo'llash *kompetensiyalarga* ega bo'lishi lozim.

### **III. 2. Oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari.**

#### **Pedagog kadrlar:**

- oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifini;
- normativ-huquqiy xujjatlarning turlarini;
- normativ huquqiy xujjatlarga qo'yiladigan talablarni;
- ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni;
- oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlarini;
- Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlarini;
- o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- OTMlarning lokal xujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar)ni;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari mazmunini;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta'lim standarti, ta'lim yo'nalishlari va magistratura



mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini *bilishi* kerak.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid qabul qilingan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkillashtirish;
- Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari ijrosini ta'minlash;
- Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.
- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini mazmun-mohiyatini ochib berish;
- Malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni o'zlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standarti, Malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlari asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

### **III. 3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar**

#### **Pedagog kadrlar:**

- ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasini;
- raqamli didaktika va uning asosiy tamoyillarini;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizaynni;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- Internetdagi turli manbalar bilan ishlashda maxsus norma va qoidalarga rioya qilish: mediasavodxonlik, mualliflik huquqi, axborot xavfsizligini;
- raqamli ta'lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- ADDIE pedagogik dizayn tushunchasini;



- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullarini;
- raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o'qitish metodlarini;
- raqamli xavfsizlik qoidalari va raqamli etikani;
- raqamli mahsulotlar va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish xususiyatlarini;
- raqamli mahsulotlar va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishda bilim oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlarini **bilishi** kerak.
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta'lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta'lim resurslari sifatini baholash;
- an'anaviy va raqamli ta'limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o'zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish;
- pedagogik faoliyatda bulutli xizmatlardan (Google, H5P, Canva, figma) foydalanish;
- onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda vebinar xizmatlari (Zoom, Yandeks, Telemost Google Meet va b.) bilan ishlash;
- ta'limning turli darajalari uchun o'quv materiallari va raqamli ta'lim resurslarini samarali yaratishni amalga oshirish;
- foydalanish samaradorligi bo'yicha raqamli ta'lim resurslari va raqamli mahsulotlarni baholash;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi muloqotni tashkil qilish uchun raqamli vositalarni tanlash;
- raqamli texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va amaliyotda foydalanish;
- masofaviy ta'lim texnologiyalariga xos bo'lgan ta'lim shakllarini qo'llash **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;
- raqamli ta'lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- bulutli xizmatlardan foydalanib infografika, videoma'ruza va multimedia vositalarini o'z ichiga qamrab olgan interaktiv taqdimot yaratish, animatsiya effektlarini o'rnatish, giperhavolalar yordamida taqdimot namoyishini boshqarish;
- masofiviy ta'lim platformalariga videokontent yaratish: onlayn video muharrirlardan (AdobePremiere Pro, Davinci Resolve, FinalCut) foydalangan holda



audio va video montaj qilish;

- uzluksiz ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun tegishli malaka darajasiga yo'naltirilgan raqamli tashkiliy-metodik ta'minotni amalga oshirish;
- raqamli muhitda uzluksiz ta'lim dasturlari asosida o'quv fanlari, kurslari, modullarini ishlab chiqish va o'quv faoliyatini tashkil etish;
- uzluksiz ta'lim dasturlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan elektron ilmiy va o'quv-metodik materiallarini ishlab chiqish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### III. 4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish

#### Pedagog kadrlar:

- jahonda oliy ta'lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo'nalishlarni;
- zamonaviy ta'limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta'limning yoshdagi ahamiyatini;
- oliy ta'limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'p qirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellari va ularning transformatsiyasini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlarini;
- tadbirkorlik universitetining asosiy vazifalarini;
- uch qirrali spiral modeli: innovatsiyalar, kelishuvlar va bilimlar makonini;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari;
- Scopus xalqaro ilmiy bazasida Sifat ko'rsatkichlarini;
- Scopus, Web of Science yoki yuqori impakt faktorli (IF) jurnallarda maqola chop etishni;
- maqolaning tahririyatda o'tish protsedurasini **bilishi** kerak.
- OTMlarni reyting bo'yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o'zlashtirish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;



- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari oshirish;
- jahon oliy ta'limi rivojlanishidagi umumiy trendlar va strategik yo'nalishlar bo'yicha adabiyotlar sharhini tayyorlash;
- ORCID, JEL Classification (Code) va Mendeley, Grammarly, CorelDraw dasturlaridan foydalanib dissertatsiya ishi paragraflari, ilmiy maqolalar va biznes hisobotlarni IMRAD formatida rasmiylashtirish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.
- innovatsion yondashuv va ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslarini o'zlashtirish, ilmiy g'oya, mavzu va gipoteza shakllantirish, reja va dastur tuzish hamda amalga oshirish;
- oliy ta'limning global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingi aniqlash metodikasi bilan tanishish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini joriy etish;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo'llarini o'rgatish;
- ishlanmalarga mualliflik guvohnomasini olish va natijalarni tijoratlashtirish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

### **III. 5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish**

#### **Pedagog kadrlar:**

- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini;
- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
- kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo'llarini;
- kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini;
- auditoriyani boshqarish psixologiyasi, tinglovchilarga ta'sir etish va ishontirish usullarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, reflektiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
- pedagog nafosati va odobini shakllantirish, rivojlantirish yo'llari hamda unga erishish shart-sharoitlarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to'siqlarni yechishda,



- to'g'ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini *bilishi* kerak.
- pedagoglarning kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
  - pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash;
  - o'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritib berish;
  - tinglovchilar diqqatini o'ziga tortish usullaridan foydalanish;
  - kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini tahlil etish;
  - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
  - innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
  - pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlarini tahlil etish va baholash;
  - ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
  - o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
  - tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
  - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.
  - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiiq etish;
  - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, reflektiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashish va xalqaro tajribalardan samarali foydalanish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini baholash;
  - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarildan samarali foydalanish;
  - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
  - auditoriyani boshqarish psixologiyasi, tinglovchilarga ta'sir etish va ishontirish usullarini qo'llash;
  - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

### **III. 6. Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari**

#### **Pedagog kadrlar:**

- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;
- baholash turlari (joriy, oraliq, yakuniy va xalqaro)ni;



- baholash tamoyillari va mezonlarini;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasini;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazoratini;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini *bilishi* kerak.
- talabalarning o'quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalari ahamiyatini ochib berish;
- talabalarning o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash nazariyasini o'zlashtirish;
- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni inobatga olish;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta'limiy (o'quv predmetlari), tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini yoritib berish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

### **III. 7. Maxsus fanlar**

#### **Pedagog kadrlar:**

#### **Qishloq xo'jaligi ta'lim sohasida.**

- O'zbekistonda g'allachilikning hozirgi holati, rivojlanishi va istiqbollarini;
- paxtachilik va g'allachilikda resurstejamkor texnologiyalarni;
- moyli ekinlar guruhi va ularni yetishtirishda innovasion texnologiyalarni qo'llashni;
- istiqbolli g'alla, don-dukkakli yem-xashak, tuganak va ildizmevali ekinlarini



yetishtirishda zamonaviy innovasion texnologiyalarni;

- tuproqqa ishlov berish, ekinlarni sug'orishga tatbiq etilayotgan innovasion resurstejamkor texnologiyalar va ulardan foydalanishni;
- agronomiyada ilmiy tadqiqot olib borish uslublarini bilishi kerak;
- O'zbekiston Respublikasi asosiy tuproq tiplarining sistematikasi va diagnostikasini;
- qiyin meliorasiyalanuvchi tuproqlarning (gipslangan, sho'rlangan, shoxli, arzikli) genezisini va xususiyatlarini tizimli tadqiqot qilish, ularni unumdorligini oshirishni;
- organomineral moddalarning o'zaro va tuproq bilan aloqasi, gumifikasiya va gumus kislotalarining tuzilishini;
- hozirgi bosqichda yer resurslari va tuproqlarni ifloslanish manbalarini;
- o'g'itlarni ko'llashda tuproqni og'ir metallar bilan ifloslanishi va ularni o'simlikka ta'sirini;
- tuproq eritmasi uni aniqlash va o'rganish uslublarini;
- iqlim o'zgarishi va tuproqlar degradasiyasini;
- mahalliy xom ashyodan tarkibida mikroelementlari bo'lgan yangi turdagi fosforli o'g'it g'o'zada qo'llash texnologiyasini;
- tuproq unumdorligini oshirishning biologik usullari: biopreparatlar, bakterial o'g'itlarni qo'llash va tuproqda organik uglerod saqlovchi (carbon agriculture) prinsiplariga asoslangan agrobiotexnologiyalarni;
- o'simlik va tuproqni kimyoviy aniqlashning zamonaviy uslublarini bilishi kerak;
- o'simliklarda uchraydigan barcha zararkunanda, kasallik va begona o'tlar turlariga qarshi kimyoviy kurash usullarini
- qishloq xo'jalik o'simliklarida uchraydigan zararli organizmlarga qarshi zamonaviy uyg'unlashgan kurash usullarini;
- zararli organizmlarga qarshi kurashda qo'llaniladigan biologik usullarni va biomahsulotlarni;
- mikologiya va fitopatologiya asoslarini;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini zararsizlantirish va ularni saqlash usullarini bilishi kerak;
- o'simliklar va mahsulotlar karantinida mikologik va bakteriologik ekspertiza qilish usullarini;
- o'simliklar karantinida virusologik va gelmentologik, entomologik ekspertiza qilish usullarini;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari orqali kirib keladigan karantin begona o'tlarni fitoekspertiza o'tkazish usullarini;
- o'simlik va mahsulotlar karantinida ekspertiza uchun namunalar olish usullarini;
- karantin materiallarini zararsizlantirish va fumigasiya qilish usullarini bilishi kerak;
- g'o'za va boshqa texnik ekinlar seleksiyasi va urug'chiligida innovasion texnologiyalarni;
- noan'anaviy seleksion usullarini;
- identifikasiyalash, urug'lik sifatini aniqlash va chatishtirish uslublarini;



- yangi navlarni yaratishda zamonaviy usullarini;
- soya va moyli ekinlar seleksiyasida genetik jihatdan boyitilgan boshlang'ich manba yaratish uchun turli xil duragaylash usullarini;
- rayonlashtirilgan soya va moyli ekinlarning navlari va ularning tavsifini bilishi kerak;
- dorivor o'simliklar tarqalish areali va bioekologik xususiyatlarini;
- floristik vohalar va ularda dorivor o'simliklarni tarqalish arealini;
- dorivor o'simliklarni ko'paytirishning zamonaviy usullarini;
- dorivor o'simliklar uchun yer maydonini tanlash, tuproqqa ishlov berish texnologiyalarini;
- dorivor o'simliklar sanoat plantasiyalarini barpo etish texnologiyalarini;
- dorivor buta va daraxtlar, o'tsimon o'simliklarni yetishtirish agrotexnologiyasi bo'yicha zamonaviy ma'lumotlarni;
- dorivor o'simliklar tayyorlash jarayoni va mahsulot sifati bo'yicha xalqaro andozalarni;
- dorivor mahsulotlarni saqlash va ishlov berish texnologiyasini bilishi kerak;
- rivojlangan mamlakatlarda ipak qurti urug'larini tayyorlash, naslli qurtlarni boqish xususiyatlari va innovasion texnologiyalarini;
- urug' tayyorlashda zamonaviy texnologiyalar, sof zot va duragay urug'lar tayyorlash texnologiyalarini;
- tut ipak qurti urug'larini tayyorlashda yangi zot va duragaylarning ahamiyatini va tut ipak qurti duragay urug'larini mavsumiy tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini;
- pillachilikda yaratilgan yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni;
- Xitoy va Yaponiya davlatlarining pillachilikdagi tajribalarini;
- pillalarga dastlabki ishlov berishning zamonaviy texnologiyalarni;
- tutchilikda seleksiya va genetika ishlarini;
- tut ipak qurti seleksiyasi va urug'chiligidagi muammolarni bilishi kerak;
- meva-sabzavot xom ashyosiga dastlabki ishlov berish texnologiyasi va ularni saqlashning zamonaviy usullarini;
- zamonaviy omborxonalarni tashkil etishning loyihaviy asoslarini;
- meva-sabzavotlarni qayta ishlash jarayonlarini tashkil etishni;
- meva-sabzavotlarni saqlashning nazariy asoslarini;
- meva-sabzavot xom ashyosiga dastlabki ishlov berish texnologiyasi va ularni saqlashning zamonaviy usullarini;
- zamonaviy omborxonalarni tashkil etishning loyihaviy asoslarini;
- don mahsulotlarini saqlashda zamonaviy resurstejamkor texnologiyalarni;
- donli ekin mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyalarini;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatiga baho berish usullari va tasnifini;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini boshqarishning standartlashtirish tizimini bilishi kerak;
- mevachilik va uzumchilikda innovasion texnologiyalarni;
- intensiv bog'dorchilikda payvandtaglar tanlash va ularni jadal ko'paytirish texnologiyasini;
- bog'dorchilikda sug'orish, o'g'itlash va daraxtlarga ishlov berishni;



- tokzorlarda tuplarni o‘stirish, shakl berish va xomtok qilishni;
- subtropik va sitrus meva o‘simliklarini ko‘paytirishning nazariy asoslarini;
- sitrus o‘simliklar va ularni ko‘paytirish usullarini bilishi kerak;
- O‘zbekistonda sabzavotchilik, polizchilik va kam tarqalgan dukkakli sabzavotlar yetishtirishning hozirgi holati, rivojlanishi va istiqbollarini;
- sabzavot, poliz va dukkakli ekinlarining morfo-biologik xususiyatlari, tashqi muhit omillariga munosabatini;
- sabzavot, poliz va dukkakli ekinlarini yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini;
- dukkakli sabzavotlarning oziq-ovqat havsizligini kafolotlashdagi rolini;
- dukkakli sabzavotlarning birlamchi va nav urug‘chiligini tashkil etishni;
- himoyalangan joylarda sabzavot ko‘chatlari va hosilini yetishtirish texnologiyalarini bilishi kerak;
- agrar sohani rivojlantirish konsepsiyasini;
- qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini tashkil etish va optimallashtirishni;
- marketing nazariyasi va zamonaviy marketing konsepsiyasini;
- marketingda strategik va taktik rejalashtirishni;
- bozor konyunkturasi va segmentlashni tadqiq etish hamda bashorat qilishni;
- zamonaviy agrobiznes va investision faoliyatning hozirgi holatini va yuritish usullarini;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari, egiluvchanligi va ularni baholash usullarini;
- qishloq xo‘jaligida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish va rejalashtirishni;
- yer va suv resurslari foydalanish, iqtisodiy baholash va uning monitoringini tashkil etishni;
- qishloq xo‘jaligida mehnatni tashkil etish shakllari, tamoyillari va vazifalarini;
- investisiya muhiti va unga ta’sir etuvchi omillar, baholash usullarini;
- agrosanoat majmuida logistik tizimni shakllantirish asoslarini;
- logistikani boshqarishning uslubiy jihatlarini;
- logistikaning funksional sohalari: ishlab chiqarish, xarid, taqsimot va qishloq xo‘jalik logistikalarini;
- qishloq xo‘jaligida: transport, ombor xo‘jaligi, axborot, moliya logistik servis xizmatlari va ularni sertifikatlashtirishni **bilishi** kerak;
- g‘o‘za, boshqoli don, tariqsimon va dukkakli, moyli, tuganakmevali, ildizmevali, yem-xashak ekinlari umumiy morfologiyasi va sistematikasi mavzularini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;
- qishloq xo‘jaligida GIS texnologiyadan foydalanish;
- tuproq unumdorligini saqlash va yerlardan foydalanishni rejalashtirish;
- begona o‘tlarga qarshi uyg‘unlashgan kurash choralarini ishlab chiqish;
- agronomiyada ma’lumotlarni matematik dispersion tahlil qilish uslublarini qo‘llash;
- bir va ko‘p omilli omilli tajriba ma’lumotlarini B.A.Dospexov uslubida dispersion va statistik usullarda tahlil qilish;



- tajriba ma'lumotlarini Sakolov va Peregudov usullarida tahlil qilish lozim;
- yerlarni sug'orishda suvga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- ekinlarni qisqa almashlab va navbatlab ekish;
- suvtejamkor texnologiyalardan foydalanish;
- ekinlar hosilini dasturlash;
- donli ekinlar hosildorligini bashorat qilish;
- qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish ko'nikma va malakaga ega bo'lishi zarur;
- tuproqlar rivojlanishining (evolyusiyasi) genetik-goyeografik o'ziga xosligini, tuproq qoplamining transformasiyasini tadqiq etish;
- agrokimyoviy xaritalarni tuzish va GAT (geoaxborot tizimlari)dan foydalanish;
- mikrobiologik va bioo'g'itlardan samarali foydalanish;
- g'o'zani bargdan oziqlantirishda mineral o'g'itlardan tayyorlangan suspenziyalarni va o'sishni sozlovchi moddalarni qo'llash;
- tuproq va o'simlik tarkibidagi oziq moddalarni (NRK) zamonaviy aniqlash va o'rganish uslublaridan foydalanish;
- o'simlik va tuproq namunalari agrokimyoviy tahlil ishlarini zamonaviy asbob-uskunalarda aniqlash usullari;
- turli agroekotizimlarda tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini modellashtirish usuli orqali tahlil qilish hamda uzoq muddatli bashoratlash;
- ex-ante dasturidan foydalangan holda uglerod balansini aniqlash orqali issiqxona gazlarining ajralib chiqishini baholash;
- suvdan unumli foydalanish, fermer xo'jaliklarida yerlarni sug'orishni boshqarish va barqarorlikni yaxshilashda Aqua Crop dasturidan foydalanish;
- tuproq sifatini baholash, oziqa elementlaridan foydalanish samaradorligi va uglerod sekvestrasiyasini oshirish;
- tuproqlarni agrokimyoviy xususiyatlarini o'rganishda pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash lozim;
- tuproqni himoyalovchi va resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash;
- yer resurslaridan samarali foydalanishda zamonaviy raqamlashtirilgan geoaxborot texnologiyalari va "Aqlli qishloq xo'jaligi" tizimini joriy qilish;
- tuproq unumdorligini oshirish texnologiyalarining global ma'lumotlar bazalari, agrar sohadagi eng zamonaviy va ilg'or texnologiyalaridan foydalanish;
- zamonaviy GAT texnologiyalari asosida yaratilgan tuproqlarning xossa-xususiyatlari aks ettirilgan elektron mavzuli xaritalar tuzishning bosqichlari va kerakli ma'lumotlar bazalarini shakllantirish;
- tuproqlarning degradasiyalanish darajasi va ekologik holatini baholashda biodiagnostika uslublaridan foydalanish ko'nikma va malakaga ega bo'lishi zarur.
- o'simliklarni himoya qilishga oid yangi innovasion usul va vositalardan foydalanish;
- qishloq xo'jalik ekinlarining zararli organizmlar va kasalliklardan himoya qilishda zamonaviy texnikalardan foydalanish;
- agrotexnik, fizik-mexanik tadbirlarni qo'llash, biomahsulotlarni laboratoriya sharoitida ko'paytirish;
- qishloq xo'jalik ekinlari zararkunanda va kasallik qo'zg'atuvchilarini



rivojlanish davrini aniqlash;

- qishloq xo'jalik ekinlari kasalliklariga, zararkunandalariga va begona o'tlarga qarshi o'yg'unlashgan kurash usullarini qo'llashni ko'nikmaga ega bo'lishi lozim;
- qishloq xo'jalik o'simliklarining kasallik va zararkunandalarini aniqlash;
- zararli organizmlarni tarqalishi va ko'payishini oldindan bashorat qilish;
- qishloq xo'jalik ekinlarini kasalliklardan uyg'unlashgan himoya qilish;
- qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunanda va begona o'tlardan uyg'unlashgan himoya qilish;
- mikrobiopreparatlar va entomofaglarni ko'paytirish bo'yicha ko'nikmaga va malakalarga ega bo'lishi zarur;
- o'simlik va mahsulotlar karantinida ekspertiza uchun namunalari olish;
- ichki karantin zararkunandalarini hisobga olish;
- o'simlik va qishloq xo'jalik mahsulotlari karantiniga doir innovasion usul va vositalardan foydalanish;
- karantin kasalliklari qo'zg'atuvchilarni va zararkunandalarni rivojlanish davrini aniqlash lozim;
- qishloq xo'jalik o'simliklari va mahsulotlarida karantin kasalliklarini qo'zg'atadigan mikroorganizmlarni aniqlash;
- o'simliklar karantin organizmlarini tarqalishi va ko'payishini oldindan bashorat qilish;
- o'simliklar va qishloq xo'jalik mahsulotlari, ekinlarini karantin chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash;
- karantin zararkunandalari entomofaglari bioekologiyasi va ularni introduksiya qilish;
- o'simliklar karantinida virusologik va gelmentologik, entomologik ekspertiza qilish;
- o'simliklar va qishloq xo'jalik mahsulotlarini zararsizlantirish hamda fumigatsiya qilish bo'yicha ko'nikmaga va malakaga ega bo'lishi zarur;
- g'o'za va boshqa texnik ekinlarning abiotik va biotik omillarga majmuaviy bardoshli navlarini yaratish;
- identifikatsiyalash uchun urug'lik g'o'za ekinlarini aprobatsiyadan o'tkazish;
- urug'lik sifatini aniqlash;
- don va don-dukakli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligida birlamchi manbalarini tanlash;
- soya urug'ligi sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, urug'larni saqlash va hujjatlashtirish;
- don va don-dukakli ekinlarda turlarning genom tahlili, biotexnologiya yutuqlarini taxlil qilish;
- urug'larning sifat ko'rsatkichlari, ularni saqlash, nav tozaligini nazorat qilish;
- soya va moyli ekinlar genomlarini tahlil qilish, chatishtirish;
- soya va zig'ir, kunjut, maxsar kabi boshqa moyli ekinlarning xorijiy navlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra mahalliy iqlim sharoitiga moslarini tanlash va yetishtirishni tashkil etish lozim;
- g'o'za va boshqa texnik ekinlar seleksiyasi va urug'chiligida innovasion texnologiyalardan foydalanish;



- g'o'za va boshqa texnik ekinlar genofondi va undan foydalanishda genetik jihatdan boyitilgan boshlang'ich manba yaratish;
- g'o'za va boshqa texnik ekinlarning abiotik va biotik omillarga majmuaviy bardoshli navlarini yaratish;
- nanopolimerlar tizimi ta'sirida g'o'za va boshqa texnik ekinlarning rivojlanish fiziologiyasi;
- yangi navlarni yaratishda zamonaviy usullar;
- g'o'za, soya, don va don-dukkakli ekinlar urug'ligi sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, urug'larni saqlash va hujjatlashtirish;
- turlarning genom tahlili, biotexnologiya yutuqlarini tahlil qilish;
- sertifikatlashtirish, aprobasiya o'tkazish qoidalari;
- soya va moyli ekinlar seleksiyasida genetik jihatdan boyitilgan boshlang'ich manba yaratish uchun turli xil duragaylash usullarini tanlash bo'yicha ko'nikmaga va malakaga ega bo'lishi zarur;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash rejimlarini o'rnatish;
- don sifatini tahlil etish uchun don to'plamlaridan namunalar olish tartibi va ularni baholash;
- qayta ishlangan mahsulotlarni zamonaviy usullarda qadoqlash;
- qayta ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini xalqaro standart talablariga muvofiq ta'minlash;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatiga sensorik baho berish;
- oziq-ovqat mahsulotlari sifatini mikrobiologik usulda baholash lozim;
- xom ashyoni sifatiga qarab qayta ishlashga qabul qilish;
- xom ashyoni xususiyatiga qarab maqsadli yo'naltirish;
- sifatni baholashda qo'llaniladigan zamonaviy jihozlarni ishlatish;
- korxonalarda sifat menejmenti tizimi ISO 900 ni qo'llash;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini ta'minlashda Global G.A.P (Good Agricultural Practice). tizimini qo'llash;
- oziq ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlashda HACCP (Hazard Analysis and Critical Control Points) tizimini qo'llash;
- qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yorliqlash va kodlash bo'yicha ko'nikmaga va malakaga ega bo'lishi zarur;
- dorivor o'simliklar marketingi va biznes reja tuzish;
- dorivor o'simliklarni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish;
- introduksiya va reintroduksiya jarayonlarini tashkil etish;
- introduksiya usullarini qo'llash, introduksion tahlil qilish va baholash;
- dorivor o'simliklar oilasi va bioekologik xususiyatlari, hayotiy shakllari, tarqalish areallari va ularning kimyoviy tarkibi bo'yicha tahlil etish;
- ekointroduksion analiz qilish va baholash lozim;
- introduksiya va reintroduksiya jarayonlarini tashkil etish, baholash;
- dorivor o'simliklar oilalari va bioekologik xususiyatlarini tahlil etish;
- dorivor o'simliklarni bioekologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'simlik turlarini tanlash va ko'paytirish;
- dorivor o'simliklar plantasiyalarini tashkil etish;



dorivor o'simliklar tayyorlash jarayoni va mahsulot sifati bo'yicha xalqaro andozalarga muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha ko'nikmaga va malakaga ega bo'lishi zarur;

- maxsus qurtxonalar, mavsumiy qurt boqish uchun qurtxonalarni tayyorlash;
  - kichik yoshdagi ipak qurtlarini boqish va siyraklashtirish, katta yoshdagi ipak qurtlarini parvarishlash;
  - pilla o'rash davrida ipak qurtlarini parvarishlash, dasta tayyorlash;
  - naslchilik xo'jaliklarida naslli zot urug'larini jonlantirish, naslli qurtlarni boqish;
  - urug'chilik korxonalarida ish faoliyatini texnologik rejalashtirish va kalendar grafigini tuzish va mavsumiy urug' tayyorlash jarayoni va texnologiyasini o'tkazishda tarmoq kalendar rejasidan foydalanish;
  - mavsumiy qurt boqish uchun mo'ljallangan mahalliy va xorijiy ipak qurti urug'larini tayyorlash texnologiyasini tahlil qilish;
  - zamonaviy intensiv tutzorlar barpo etish va sifatli tut bargi yetishtirish;
  - tut nihollari va tut ko'chatlarini ekish, parvarishlash va ulardan foydalanish;
  - takroriy qurt boqish uchun tut navlarini tanlash va ularning barglaridan foydalanish lozim;
  - naslli pillalarni nasldorlik xususiyatlarini baholash;
  - ipak qurtlarini kasalliklarga qarshi tekshiruvdan o'tkazish;
  - kapalaklarni izolyasiya qilish;
  - urug' sifatini aniqlash;
  - tutchilikda seleksiya va genetika ishlarini tashkil etish;
  - intensiv tutzorlar tashkil etish va parvarishlash, undan foydalanish;
  - tutzorlarni parvarish qilish va takroriy qurt boqish uchun bargdan foydalanish;
- tutning xo'jalik belgilarini aniqlash va onalik tutzorlarda yetishtirilgan tut urug'larini ekish va agrotexnik ishlov berish ko'nikmaga va malakaga ega bo'lishi zarur;
- intensiv bog' barpo qilish loyihasini tuzishda hisob-kitob ishlarini amalga oshirish;
  - intensiv bog'larda shakl berish, sug'orish, o'g'itlash, qator oralariga ishlov berish ishlarini amalga oshirish;
  - uzumchilikda o'sishni boshqaruvchi moddalarning qo'llashni tashkil etish;
  - subtropik va sitrus o'simliklari sanoat bog'larini barpo qilish lozim;
  - meva va rezavor-meva o'simliklarining biologik xususiyatlari va ularga tashqi muhit omillarini boshqarish;
  - mevali o'simliklarni payvand qilishning zamonaviy texnika va texnologik elementlaridan foydalanish;
  - uzumning istiqbolli navlaridan ko'chatlar yetishtirishda jadallashtirilgan texnologiyalarni qo'llash;
  - eksportbop uzum mahsuloti yetishtirish texnologiyalari sitrus o'simliklar va ularni ko'paytirish usullarini qo'llash bo'yicha ko'nikmaga va malakaga ega bo'lishi zarur;
  - himoyalangan joylarda sabzavot ko'chatlari va sabzavot hosili yetishtirish;



- sim bag'azlarda pomidor, bodring yetishtirish;
- sabzavot ekinlari ekish sxemalari va tup sonlarini belgilash;
- sabzavot ekinlarini payvandlash;
- poliz, dukkakli sabzavot ekinlarining oziqlanish maydoni, tup qalinligi va hosildorligini aniqlash bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- poliz va dukkakli sabzavot ekinlarining birlamchi va nav urug'chiligini tashkil etish;
- chetdan introduksiya qilingan nav-namunalarning biologik va xo'jalik belgilaridan foydalanish lozim;
- keng tarqalgan karam, tomatdosh sabzavotlar, bodring, qovoqcha, patison va ildizmevalilar navlari va ularni yetishtirish;
- sabzavot, poliz va dukkakli sabzavot ekinlarining biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda almashlab va navbatlab ekish rejasini ishlab chiqish;
- issiqxona polizchiligi, poliz ekinlarining oziqlanish maydoni, tup qalinligi va hosildorligini aniqlash;
- takroriy ekin sifatida poliz va dukkakli sabzavot ekinlarini parvarishlash va yuqori hosil yetishtirish;
- sabzavot, poliz va kartoshkachilikda mineral va organik o'g'itlardan foydalanish ko'nikmaga va malakaga ega bo'lishi zarur;
- qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, tahlil qilish, bashoratlash, boshqaruv qarorlarini iqtisodiy asoslash, mahsulotlarning sifat va resurs hajmini boshqarish, korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni optimallashtirish, o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligiga baho berish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori haqida ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, mahsulotga bo'lgan talabni aniqlash, mahsulot sifatini baholash, tovar raqobatbardoshligini ta'minlash va sotish;
- qishloq xo'jaligida tabiiy, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan foydalanish;
- agrar sohada investision va logistik faoliyat yurita olish;
- logistikada strategiyani tanlash va tahlil usulari; qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida transport logistikasi; qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotni istemolchilarga talab darajasida yetkazib berish bilan bog'lik muammolar yechimini topish lozim;
- qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish, yer uchastkalaridan maqsadli foydalanish va yerlarning unumdorligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;
- qishloq xo'jalik korxonalarida investisiya jarayonlarini boshqarish va biznes reja tuzishga oid bilimlarini amaliyotda qo'llash;
- agrar sohada biznesni tashkil etish va logistik xizmatlar ko'rsatish;
- qishloq xo'jalik korxonalarida ilg'or xorij tajribalarini qo'llash, bashorat qilish, boshqaruv qarorlarini iqtisodiy asoslash;
- qishloq xo'jalik korxonasining logistik tizimini shakllantirish;
- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida xarid, ishlab chiqarish, taqsimlash jarayonlarida moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarni boshqarishni, qishloq



xo'jaligi ishlab chiqarishning samaradorligi oshirish ko'nikmaga va malakaga ega bo'lishi zarur.

- sug'oriladigan maydonlardan samarali foydalanishni tashkil etish;
- dala tajribalarini rejalashtirish, qo'yish va olib borishning zamonaviy uslublarini qo'llash;
- laboratoriya, lizimetrik va vegetasion tajribalar olib borish;
- ilmiy tadqiqot ishlarida hisob va fenologik kuzatuvlarini amalga oshirish;
- sho'r yuvish me'yorlarini belgilash;
- g'alla ekinlarini qishga va sovuqqa chidamliligini oshirish ishlarini tashkil etish;
- hosildorligini bashorat qilish va dasturlash;
- don sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni boshqarish kompetensiyaga ega bo'lishi lozim.
- tuproqlarda sho'rlanish, sho'rtoblanish, eroziya, gumifikasiya va degumifikasiya, agrokimyoviy, agrofizikaviy, biologik va ekologik jarayonlar qonuniyatlarini o'rgatishda pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash;
- o'g'it qo'llashning resurstejamkor usullarini to'g'ri tanlash;
- tuproq gumusini boshqarish va hisobga olish;
- tuproqshunoslik va agrokimyoda tuproq unumdorligini tiklash;
- ekinlar hosildorligini oshirishda innovasion texnologiyalardan foydalanish;
- sho'rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda suv va resurs tejovchi texnologiyalarni tanlash va qo'llash;
- unumdor tuproqlarning ma'lumotlar bazasini yaratish kompetensiyaga ega bo'lishi lozim;
- qishloq xo'jalik o'simliklari zararkunanda, kasallik va begona o'tlar tarqalishini oldini olish ishlarini tashkil etish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda va saqlashda fitosanitar nazorat o'tkazish;
- zararli organizmlarga qarshi pestisidalarni qo'llashda turli zamonaviy vositalardan foydalanishni nazorat qilish;
- uyg'unlashgan himoya qilish tizimida qo'llash uchun yangi texnologiyalardan foydalanishni joriy qilish;
- o'simliklarni va o'simlik mahsulotlarini import va eksport qilishda fitosanitar xulosalar berish kompetensiyaga ega bo'lishi zarur;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va saqlashda fitosanitar nazorat o'tkazish;
- o'simlik va qishloq xo'jalik mahsulotlari karantin zararkunandalari, kasalliklarini fitoekspertiza qilish;
- o'simliklar va mahsulotlar karantini bo'yicha mikologik va bakteriologik ekspertiza o'tkazish;
- karantin materiallarini zararsizlantirish va fumigasiya qilish usullarini belgilash;
- ichki karantin zararkunandalarini hisobga olish kompetensiyaga ega bo'lishi lozim;
- intregressiv usul asosida turlararo duragaylash;



- g'oz va boshqa texnik ekinlar seleksiyasi va urug'chiligida boshlang'ich ashyo va chatishtirish;
- noan'anaviy seleksion usullarini qo'llash;
- g'oz va boshqa texnik ekinlar seleksiyasi va urug'chiligida innovasion texnologiyalardan foydalanish;
- g'oz va boshqa texnik ekinlar genofondi va undan foydalanishda genetik jihatdan boyitilgan boshlang'ich manba yaratish;
- nanopolimerlar tizimi ta'sirida g'oz va boshqa texnik ekinlarning rivojlanish fiziologiyasi;
- identifikatsiyalash uchun urug'lik g'oz ekinlarini aprobatsiyadan o'tkazish;
- urug'lik sifatini aniqlash, g'oz va boshqa texnik ekinlar seleksiyasi va urug'chiligida boshlang'ich ashyo va chatishtirish uslublarini tanlash;
- don va don-dukakli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligida birlamchi manbalarini tanlash;
- soya va moyli ekinlar genomlarini tahlil qilish;
- soya va zig'ir, kunjut, maxsar kabi boshqa moyli ekinlarning xorijiy navlarining o'ziga xos xususiyatlari, mahalliy iqlim sharoitiga moslarini tanlash va yetishtirishni tashkil etish bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishi lozim;
- meva-sabzavotlarni qayta ishlash jarayonlarini tashkil etishda issiqlik ishlov berish, turli mahsulotlar tayyorlash, sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, quritish, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar tayyorlash, qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini qadoqlash;
- meva-sabzavot mahsulotlari logistikasini ilmiy asoslangan holda tashkil etish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatini baholashda Global GAP (Good Agricultural Practice) va boshqa xalqaro standartlashtirish tizimlarini qo'llash;
- donli ekin mahsulotlarini qayta ishlash, qayta ishlangan don mahsulotlaridan non, makaron va konditer mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish;
- qand sanoati xom ashyosini, tolali ekinlarni saqlash va dastlabki ishlashni tashkil etish;
- moyli urug'larni saqlash va moy olishning texnologik jarayonlarini boshqarish kompetensiyaga ega bo'lishi lozim;
- dorivor o'simliklarni introduksion analiz qilish va baholash;
- dorivor o'simliklar oilalari va bioekologik xususiyatlarini tahlil etish;
- dorivor o'simliklarning hayotiy shakli, areallari va kimyoviy tarkibi bo'yicha tahlil etish;
- ekointroduksion analiz qilish va baholash;
- dorivor mahsulotlar yetishtirish, saqlash va ishlov berish;
- dorivor xom ashyolarni xalqaro andozalarga mos holda yetishtirish va qayta ishlash kompetensiyaga ega bo'lishi lozim;
- intensiv tutzorlar tashkil etish va parvarishlash, tutzorlarni parvarish qilish va takroriy qurt boqish uchun bargdan foydalanish;
- tut ipak qurtini yoshlari bo'yicha boqish va pilla o'rash davrida ipak qurtlarini parvarishlash;
- dasta tayyorlash va qo'yish, yetilgan pillalarni terish va tozalashda yangi dastgohlardan foydalanish;



- naslchilik stansiyalarida superelita va elita urug'larini tayyorlash;
  - naslchilik xo'jaliklarida naslli zot urug'larini jonlantirish kompetensiyaga ega bo'lishi lozim;
  - mevali o'simliklarni payvand qilishning zamonaviy texnika va texnologik elementlarini qo'llash;
  - tok ko'chatlarini jadal ko'paytirish usullarini joriy etish;
  - zamonaviy tokzorlarga shakl berish;
  - eksportbop va ekologik mahsulotlar yetishtirish;
  - intensiv bog' barpo qilish loyihasini tuzishda hisob-kitob ishlarini olib borish bo'yicha kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim;
  - poliz, sabzavot ekinlarini ekish usullari, ekish sxemalari, muddatlarini va tup sonlarini belgilash;
  - himoyalangan joylarda poliz va sabzavot ko'chatlari yetishtirish;
  - sabzavot ekinlarini payvandlash texnologiyasi;
  - himoyalangan inshootlarda zamonaviy texnologiyalar asosida poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirish;
- eksportbop va ekologik toza poliz va sabzavot mahsulotlarini yetishtirish kompetensiyaga ega bo'lishi lozim.
- Ishlab chiqarish funksiyasi yordamida foydani maksimallashtirish;
  - qishloq xo'jaligida investision va innovasion faoliyatni tashkil etish;
  - qishloq xo'jalik korxonalarida marketing tadqiqotlarini olib borish, marketingda strategik va taktik rejalashtirish;
  - marketingda narx va narx siyosati, narxni tahlil etish va prognoz qilish;
  - bozor konyunkturasi tadqiq etish, bashorat qilish;
  - qishloq xo'jaligida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish;
  - yerning unumdorligini oshirish, yerni iqtisodiy baholash va uning monitoringini tashkil etish;
  - qishloq xo'jaligida mehnatni tashkil etish;
  - investisiya faoliyatini tashkil etish, investisiya muhiti va unga ta'sir yetuvchi omillarni boshqarish hamda investisiya muhitini baholash;
- qishloq xo'jalik korxonasining logistik tizimi va sohada logistikaning funksional yo'nalishlarini tashkil etish va ularning axborot tizimini shakllantirish kompetensiyaga ega bo'lishi lozim.

#### **IV. Yakuniy qoida**

Mazkur malaka talablari ijtimoiy-iqtisodiy sohaning ustuvor yo'nalishlari va vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirib boriladi.

**Toshkent davlat agrar universiteti**  
**birinchi prorektori**



**S.Islomov**

2023 yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_